

## **TA'LIM SOHASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR**

*DTPI “Ijtimoiy gumanitar” fanlar kafedrasini o'qituvchisi*

***Mo'minov O'lmas***

*DTPI Maktabgacha ta'limgan yo'naliishi 1- bosqich talabasi*

***Abduraimova Mohichehra Jo'ra qizi***

***Meyliyeva Shahnoza Erkin qizi.***

Annotatsiya Ushbu maqolada O'zbekistondagi ta'limgan tizimidagi yangiliklar ,ta'limgan tizimining shakllanishi ,ta'limgan tizimiga oid davlat qonunlari ,ularga kiritilgan o'zgarishlar ,O'zbekistonda ta'limgan tizimini rivojlantirish,aholini olivy ta'limgan bilan qamrab olish darajasini oshirish va ta'limgan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'limgan tizimida mavjud bo'lgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rilibayotgan chora tadbirlar haqidagi fikrlar keng yoritilgan.

Абстрактный В данной статье новости о системе образования в Узбекистане, становлении системы образования, государственных законах о системе образования, внесенных в них изменениях, развитии системы образования в Узбекистане, повышении уровня охвата населения высшим образованием. широко освещаются мнения о реформах, проводимых в сфере образования, проблемах, существующих в системе образования, и мерах, принимаемых для их устранения.

Abstract In this article, news about the education system in Uzbekistan, the formation of the education system, state laws on the education system, changes made to them, the development of the education system in Uzbekistan, increasing the level of coverage of the population with higher education and the opinions about the reforms implemented in the field of education, the problems existing in the education system and the measures taken to eliminate them are widely covered.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim siyosati,ta'lim to'g'risidagi qonunlar ,ta'lim tizimidagi islohotlar, texnikaviy bilim, murakkab texnologiya ,yuksak salohiyat,milliy ta'lim-tarbiya,ta'lim taraqqiyoti demokratik ta'moyil.

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda ,mamlakatimiz taraqqiyotida ,O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish fuqarolarni zamonaviy ilm-fan ,madaniyat ,texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega.Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk ,texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan ,irodasi baquvvat ,iymoni butun,zamonaviy fikrlaydigan ,yuksak salohiyatli odamlar hal etadi.Kelajak taqdirimizga hal qiluvchi ta'sir ma'rifat ,ta'lim-tarbiya ,ijtimoiy -iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni ,jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish ,rivojlantirish va hayotga joriy etishdir.Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev ta'lim sohasini isloh qilish,rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida 2017-yil 8-oktyabr kuni yig'ilish o'tkazildi.Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri,tegishli vazirlik va tashkilotlar rahbarlari ishtirok etdi.Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib ,farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari ,jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash,ularning qobiliyat va iste'dodi ,intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish ,yoshlarimiz qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.Prezidentimizning 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy soha,xususan ,ta'lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish borasida bir qator vazifalar belgilangan. Hujjatda ta'lim tashkilotlarini moddiy-tezxonik bazasini mustahkamlash,yangi ta'lim tashkilotlarini qurish ,ta'mirlash va kapital ta'mirlash barobarida ularni zamonaviy o'quv va labaratoriya jihozlari bilan

ta'mirlash yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqildi.” Hammamizga ayonki ,taraqqiyotning tamal toshi ham,mamlakatni qudratli,millatni buyuk qiladegan kuch ham bu-ilm-fan,ta'lim va tarbiyadir.Ertangi kunimiz,Vatanimizning yorug' istiqboli ,birinchi navbatda ,ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq'',-deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'limning taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi ,insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotganday go'yo.Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdeg'i vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas.Negaki,mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.Bugungi kunda universitetlarning ta'lim berish faoliyati yana-da takomillashtirilib,xalqimizning asrlar davomida shakllangan ilm sari intilish fazilati yana bir bor namoyon bo'lmoqda.Yoshlarimiz sog'lom hamda go'zal turmush kechirish ,egallagan kasbi bo'yicha doimiy ish o'rniga ega bo'lish ,ma'suliyatini o'z zimmasiga olish'insoniy qadr qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik,qisqacha aytganda ,komilikka erishish uchun harakat qilyapti va bu jarayonda ta'lim olishni eng asosiy shart sifatida ko'rmoqda. Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi.Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish,raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyani rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'naliishlarini aks ettiradi.Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish ,raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish ,innovatsion tuzilmalarni shakllantirish ,ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish ,xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'naliishlar belgilab berilgan.Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga

bag'ishlangan tantanali marosimdag'i da'vatkor nutqi ham ana shundan dalolat beradi.Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek,biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar ,jumladan,ta'lism islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri,ya'ni uchinchi Renessans poy devorini yaratishni uzimizga asaosiy maqsad qilib belgiladik. Ayni davrda O'zbekiston oliy ta'lism sohasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bilim dargohlarning qiyofasi o'zgarib, modiy -texnika bazasi yaxshilanyapti, ilmiy ishlanmalarni moliyalashtirish va ijtimoiy qo'llab- quvvatlash kuchaytirilmoqda ,jumladan ,professor-o'qituvchilarning daromadlari ham ortayabdi.Innovatsiya yo'nalishidagi alohida davlat tuzilmalari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarida ham yangi bo'linmalar ochilmoqda.Bularning barchasi oliy ta'limga bo'lgan yondashuvni o'zgartirib ,uning sifati hamda darajasini ko'tarishga xizmat qilishi aniq.Shu o'rinda Prezidentimizning 2016-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan olimlaru ziyolilar bilan uchrashuvi yodga tushadi.O'shanda davlat rahbari mamlakatimiz sanoati, agrar tarmog'I va umuman ,iqtisodiyotida xorijdan ishlab chiqarilgan zamonaviy texnologiya hamda jihozlarni joriy etish va ulardan foydalanish masalasiga alohida qaratgandi.Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq yosh avlodning ta'lism masalasi kun tartibidagi asosiy masalaga aylandi. Ayniqsa, so'nggi yillardayam talimda amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar ta'linda, olliy ta'lism tizimida tub burilish yasadi deyish mumkin. Maktablarda 2017-yildan boshlab 11 yillik ta'lism tizimiga o'tish boshlanib, 2019-yilda 11 yillik ta'lism tizimida to'liq o'tildi. 2017 -yilda oliy ta'lism tizimini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 5 yillik dastur qabul qilinib, ta'lism tizimining eng quyi bosqichi hisoblangan maktabgacha ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi qabul qilindi, qolaversa 2020-2025-yillarida xalq ta'lism tizimida inklyuzif ta'limga rivojlantirish konsepsiysi ham ishlab chiqildi. 2018 -2019- o'quv yillarda 2502 oltin, 2555 kumush medalli bilan maktabni tugatgan bitiruvchilar oliy ta'lism bosqichiga imtiyozli o'tish imkonini qo'lga kiritdi.Bu imkoniyatni yo'lga quyilgani iqtidorli yoshlar mehnatini qo'llab- quvvatlash jihatidan ta'lism sohasi qo'lga kiritgan eng katta yo'tiq bo'ldi desak, mubolag'a

bo'lmaydi.2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantrirish dasturi qabul qilinganidan so'ng 2019-yildan oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan ,olis,chekka va tog'li hududlarda joylashgan umumta'lim maktablari uchun maqsadli qabul ko'rsatgichlari belgilandi.Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida har doim har bir mamlakat uchun yetuk kadrlar tayyorlash muhim vazifalardan biri ekanligi,oliy ta'lim tizimida tahsil olish uchun keng imkoniyat yaratish ,pedagog kadrlarga et'ibor berish,mutaxassislar tayyorlashni kuchaytirish kerakligi ta'kidlandi.2019-yilga kelib 14 yangi oliy ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini boshlagan bo'lsa,6 ta maxalliy va 8 ta xorijiy universitetning joylarida filiallari ochildi.Shu asosda 40 ta yangi yo'naliish,41 yangi mutaxassislik ta'limi joriy etildi.Qolaversa,Qo'qon shahrida xususiy Qo'qon universiteti ochilib,ta'limda ham o'ziga xos "Xususiy sector" paydo bo'ldi deyish mumkin.Oliydan keyinggi ta'lim –magistratura bosqichida zamonaviy texnika sohalariga yaqin yo'naliishlar ochildi.Shu yerda savol tug'iladi –oliy ta'lim tizimiga so'nggi yillarda talab oshishning sababi nimada.Oliy ta'limga talabning oshayotgani dunyodagi rivojlangan davlatlar oliy ta'lim tizimida ushbu ta'limga yoshi yetgan yoshlarni qamrab olish darajasi 60-70% ni tashkil etayotganida ko'rish mumkin .Respublikamizda bitiruvchilarning oliy ta'lim tizimi bilan qamrab olish darajasi o'tgan davrda 9-10% ni tashkil etgan bo'lsa 2007-yildan oliy ta'lim tashkilotlariga qabul kvotalari 15 % ga oshirilib 2020-2021- oquv yilidan et'iboran o'qish muddati 3 yil bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'naliishlari joriy etildi.

Xulosa shuki,Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar.Bugungi kunda yoshlarga qaratilayotgan e'tiborning qadriga yetishi va uni obyektiv baholash,mustaqillikni zaruriyatini to'g'ri va haqqoniy anglashi hamda kelajakka ishonch xosil qilishi uchun ularda mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantrish muhim ahamiyatga ega .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Karimov.I.A . O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod, siyosat ,mafcura.T.O'zbekiston .1996.
- 2.2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi.
- 3.<https://in-academy.uz>
- 4.<https://jdpu.uz>.